

RESEARCH ARTICLE

Rendering Vulgarisms In Characters' Speech In Literary Translation

Gulnoza Nazrullayeva

Senior Lecturer, PhD, Tashkent State University of Oriental Studies Toshkent, Uzbekistan

VOLUME: Special Issue 2026

PAGE: 82-86

Copyright © 2026 European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, this is an open-access article distributed under the terms of the Creative Commons Attribution-Noncommercial-Share Alike 4.0 International License. Licensed under Creative Commons License a Creative Commons Attribution 4.0 International License.

Abstract

This article examines the social and spiritual nature of curses in various cultures, their place in human relationships, and their negative impact. Curses often serve as a means of expressing emotional states such as anger, hatred, or resentment, and through them a person's moral level, cultural maturity, and social status are reflected. In the process of translating such lexical units, the translator faces a serious challenge, since creating a character's portrait requires not only choosing the appropriate linguistic means, but also deeply understanding the character's emotional experiences, inner world, and attitude toward reality.

KEY WORDS

literary translation, character, speech, curse, parasitic words, vulgarism, Indian literature, nationality, culture.

INTRODUCTION

Har bir millatning dunyoqarashi, mentaliteti va taʼfakkur tarzini ifodalashda boshqa lingvomadaniy birliklar bilan birga, vulgarizmlar ham alohida ahamiyat kasb etadi. Tilshunoslikda vulgarizmlar gʻayriaxloqiy soʻzlar sifatida talqin qilinib, ular tabiʼatiga koʻra qargʻish, haqorat va soʻkish soʻzlariga ajratiladi.

Qargʻish, haqorat va soʻkish soʻzlari haqida tilshunoslik, adabiyotshunoslik, folklorshunoslik hamda tarjimashunoslik sohalarida qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Xususan, jahon va rus tilshunosligida qargʻish, laʼnat va olqish soʻzlari nutqiy akt, nutqiy ekspresivlar sifatida oʻrganilgan [16, 4, 5, 7]. Oʻzbek filologiyasi doirasidagi tadqiqotlarda qargʻish, haqorat va soʻkish soʻzlarining semanticasi va funksional xususiyatlari oʻrganilgan. Izlanishlarda xalq ogʻzaki ijodi namunalari hisoblangan qargʻish, haqorat va soʻkishlarning transformatsiyasi hamda ularning sehr-jodu amallari bilan bogʻliqligi masalasiga ham alohida eʼtibor qaratilgan. Shuningdek, baʼdiy tarjimalarda milliy kolorit

bilan bogʻliq olqish, duo va qargʻish birliklarining ifodalashini tahlilga tortilgan [12, 10, 3, 1, 6, 2, 14].

Maqolada taniqli hind adiblari K.Chandarning "Bir qizga ming oshiq", Premchandning "Fidoi", B.Sahnining "Basanti", Yashpalning "Raq-qosa" romanlarining oʻzbekcha tarjimalari amaliy material sifatida olindi. Milliylik ruhi chuqur singdirilgan mazkur asarlarni tahlil etish jarayonida koʻplab qargʻish va haqorat soʻzlari borligi aniqlandi.

B.Oʻrinboyev tomonidan vulgarizmlar maʼno ottenkasi va qoʻllanish doirasiga koʻra uch guruhga ajratiladi: 1) kishilarning xarakteri va mijozidagi ojizlikni ifodalovchi vulgarizmlar; 2) kishining tashqi kamchiligi koʻrsatuvchi vulgarizmlar; 3) soʻkish, koyish maʼnosini ifodalovchi vulgarizmlar [17,128]. F.Eshboyeva inson va uning faolligini bilan bogʻliq xalq qargʻishlarini mavzu doirasiga koʻra quyidagicha tasniflaydi: 1) Odamning tana aʼzolari bilan bogʻliq qargʻishlar; 2) Insonning yoshi va jinsi bilan bogʻliq qargʻishlar; 3) Odamning feʼl-atvori bilan bogʻliq qargʻishlar; 4) Kishining qargʻalayotgan paytdagi holati bilan

bog'liq qarg'ishlar; 5) Inson o'limi bi-lan bog'liq qarg'ishlar; 6) Hayvonlarga nisbat berib aytiladigan qarg'ishlar; 7) Ta-bi-at o'zga-rish-la-ri bilan aloqador qarg'ishlar; 8) Narsa-hodisa bilan bog'liq qar-g'ish-lar; 9) Rang-tus bilan bog'liq qarg'ishlar; 10) Diniy e'tiqod bilan bog'-liq qar-g'ish-lar [3,16-17].

Maqolada B.O'rinboyev va F.Eshboyevalarning tasniflariga ta-yan-gan holda, vulgar so'zlarni mavzu doirasiga ko'ra quyidagi guruhlariga ajratib tah-lilga tortik: 1) Kishilarning fe'l-atvori va mijozidagi ojizlikni ifodalovchi vulgarizmlar; 2) Kishilarning tashqi ko'rinishidagi kamchi-li-gini ko'rsatuvchi vulgarizmlar; 3) So'kish va haqoratlash ma'nosini ifo-dalovchi vulgarizmlar; 4) Tahdid ma'nosini ifodalovchi vul-ga-rizm-lar; 5) Bevosita qarg'ishni aks ettiruvchi vulgarizmlar.

1. Kishilarning fe'l-atvori va mijozidagi ojizlikni ifodalovchi vulgarizmlar: Har qanday tilning lug'at tarkibida ekspressiv-emotsi-o-nal funksiyani baja-ra-di-gan peyorativ (tahqirlovchi) leksik qatlam mav-jud bo'lib, u salbiy ma'nodagi so'z-lar, so'z birikmalari yoki ifo-da-lar-ni tashkil etadi. Peyorativ leksika, asosan, suh-bat-dosh-ni kamsitish, ha-qoratlash maqsadida ishlatiladi.

Kishilarning xarakteridagi kamchiliklarni ifodalovchi vul-ga-rizm-lar, odatda, o-dam-ni-ning ichki fazilatlar yoki xulq-atvori bilan bog'liq sal-biy fikrlarni ifodalovchi so'z-lardir. Bunday vulgarizmlar quyi-da-gi-lar-ni ifodalashi mumkin: 1) Ishonchsizlik yoki qo'rqqoq bo'lish (kishi-ning jasoratsizligi yoki qo'rqqoq e-kan-ni-ligini kamsituvchi so'zlar, ma-sa-lan, "qo'rqqoq", "yuraksiz" va h.k.); 2) O'zgalarni kamsitish yoki mas-xa-ra qilish (kishilarning boshqalar bilan mu-no-sabatda bo'lishidagi noxushliklarni ifodalovchi vulgarizmlar, masalan, "yol-g'on-chi", "vijdotsiz", "befarosat" kabilar). Misollarga e'tibor qaratamiz:

"तू चुप रह कच्चे पपीते !" लची माधी की ओर देखकर बोली [19, 8] Tarjimasi: - O'chir ovozingni, to-mo-sha-qo-voq! - dedi La'chiy Madxo' tomonga qa-rab. "Sen jim xom papaya!" Lachi Mad-hi-ga qarab gapirdi [18, 4].

Keltirilgan matndagi कच्चे पपीते ifodasi "xom papaya"ni ang-la-tadi, u tarjimada tomoshaqovoq deb berilgan. O'zbek va hindiy tillaridagi har ik-ka-la leksema ham "ahmoqlik" yoki "tajribasizlik"ni bildiradi.

रक्षकने अपमानसूचक भाव से कहा, वह और तुम बराबर। आगपर घी

जो कुछ करता है वह इस वाक्यने सुमनके हृदय पर किया। ओठ चवाकर बोली, चुप रह मूर्ख! [9,35] Tarjimasi: O'-zi tutaqib zo'rg'a turgan Suman bu gapdan lov etib yon-di, lablari tit-rab dedi: - Og'-zingga qarab gapir, tentak! [8,31].

Yuqoridagi matnda Suman va bog' qorovuli o'rtasidagi muloqot aks et-gan bo'lib, bog' qorovulining noo-rin harakatidan jahli chiqqan Su-man uni Og'-zing-ga qarab gapir, tentak! deb haqorat qiladi. Bu mi-sol-da चुप रह मूर्ख iborasini tahlil qilamiz. चुप रह koyish, buyruq ohan-gi-dagi haqorat bo'-lib, "jim bo'l, o'chir" ma'nolarini anglatadi. मूर्ख ha-qo-rat so'zi esa ah-moq, tentak, jinni deb tarjima qilinadi. Demak, bar-cha haqorat so'zlari tarjimada to'-la-ligicha o'z aksini topgan.

2. Kishilarning tashqi ko'rinishidagi kamchiligini ko'rsa-tuv-chi vulgarizmlar: Lingvomadaniy jamoa vakillari o'zaro muloqotga ki-rishar ekan dastlabki ta-as-surot muhim ahamiyat kasb etadi. Bi-rin-chi taassurot esa tashqi ko'rinish asosida yu-zaga chiqadi. Ma'lu-mot-lar-ga ko'ra, tashqi ko'rinish 92% tasavvurni paydo qi-ladi.

Kishilarning tashqi ko'rinishidagi kamchiliklarini ko'rsatuvchi vulgarizmlar ko'-pincha insonlarni xafa qilish, kamsitish yoki o'zgalar haqida salbiy fikrlar bil-di-rish uchun ishlatiladi. Mazkur guruhdagi vul-garizmlar ko'pincha kishining tashqi ko'-rinishidagi biror qusurni tan-qid qilish yoki shaxsning fizik holatini masxara qi-lish-ga qa-ra-til-gan bo'ladi. Masalan, shaxsning fizik xususiyatlarini kamsitish (odam-ni-ning tana shakli, bo'yi yoki vazniga doir kamsituvchi so'zlar ish-la-tilishi mumkin: "se-miz", "pakana", "novcha", "qiltiriq" va h.k.); yuz yoki teri xususiyatlariga doir ha-qoratlar (yuzdagi nuqsanlar, ajin-lar, qiyshiq tishlar, terining rangiga oid salbiy izoh-lar); soch, so-qol shaklini masxara qilish va h.k. Quyidagi misollarni qi-yos-lay-miz: हाजी चाचा! क्या प्रोग्राम है? क्यों बे कालिये, तूने मुझको क्यों बुलवाया है? [19,97] Tar-jimasi: - Hoji amaki! Ne muddaolar bilan keldilar? Oldindan xa-bar ber-may, me-ni nega chaqirtirdinglar, hoy Qoravoy? [18, 95].

Mazkur jumlada कालिया so'zi "qora" ma'nosini anglatib, per-so-naj-lar-dan birining teri rangini kamsitish uchun ishlatilgan. Mutarjim bu so'zni o'zbek nut-qiy me'yorlaridan kelib chiqqan holda qoravoy deb o'girib, kamsitish ottenkasini bi-roz yumshatishga uringan.

इन अन्धी भिखारिनों के नाम होते हैं, बल्कि इनके घर भी होते हैं। [19,132] Tar-ji-ma-si: - Bu ko'r tilanchi xotinlarning ismlari ham bo'ladi, ularning uy-la-ri ham bo'ladi [18, 117].

Matnda kishining jismoniy kamchiligini ko'rsatuvchi अन्धी भिखारिनों haqorat so'zi ishlatilgan. अन्धी “ko'r” ma'nosini anglatib, jis-mo-niy nuqsonni bildiradi. भिखारिनों “tilanchi ayollar” ma'nosida ke-la-di. Bu so'z mensimaslik, masxara qilish va haqorat ohangida ishlatilgan.

अन्धी ko'r so'zining ayni kamsitish ma'nosida quyidagi jumlada ham ish-la-tilganini kuzatish mumkin: इस ददियल हाजी की गोद में तो तुम्हारा वार्डर ही बैठेगा। [19,99] Tarjimas: - Bu paxmoqsoqol Hojining pinjiga soq-ching kirib o'tirsini! [18, 97]

Qayd etilgan ददियल so'zi “soqolli” yoki “paxmoq soqolli odam” ma'nosini ifodalab, kamsitish va masxara qilish maqsadida ishlatilgan. Shuning u-chun uni kishining tashqi kamchiligini ko'rsatuvchi vulgarizm sifatida tasniflash mum-kin.

3. So'kish va haqoratlash ma'nosini ifodalovchi vulgarizmlar: So'-kish va haqoratlash ma'nosini ifodalovchi vulgarizmlar, ayniqsa, hay-von nom-lari qo'shib ishlatilganda ularda salbiy konnotatsiya juda kuch-li namoyon bo'-la-di. “Hayvonlarga nisbat berib aytiladigan qar-g'ish-lar kishilararo munosabatni o'-zi-ga xos obrazlar tizimi va stilistik bo'-yoq bilan ifodalaydi. Ularda qarg'aluvchining ko'-rinishi, biron bir xu-susiyati yoki muayyan xatti-harakati muayyan hayvonga o'-sha-ti-la-di, nisbat berib qarg 'aladi” [3,18].

इसलिए मामन ने दुमारू को तसल्ली देकर कहा, “मैं तुम्हारे साथ तम्बू के अन्दर चलता हूँ। देखता हूँ कैसे वह सूअर की बच्ची [19,18] – Shularni o'ylab, Ma'man Dumaruga tasalli berib dedi: Men sen bi-lan chodirga kiranman. Ko'raman, u megajin qanaqa... [18, 10]. Asliyatdagi सूअर so'zi megajin deb tarjima qilingan. Hindiyda सूअर “cho'chqa” degani. O'zbek tilida megajin “ur-g'o-cho qobon, urg'ochi cho'chqa”. Xotin-qizlarga nisbatan ish-latiladigan qat-tiq haqorat so'zi. सूअर की बच्ची haqorat so'zida jins ka-te-go-riyasini ko'rishimiz mumkin. Ya'ni, bu yerda ayol kishiga murojaati aks etgan. Bir-gina की ort ko'makchisi ayolga nisbatan aytilayotganini bildiradi.

Ma'man ayol ki-shini so'kayotganligi uchun tarjimon ushbu so'zni qo'llagan.

उसके नेत्रों की गहरी झीलों में क्रोध की लहरें उठ रही थीं। “कमीने कुत्ते !! ” लाची ने एक पत्थर उठाया । Tarjimas: Uning ko'lday tubsiz ko'zlarida g'azab o'ti alanglanardi. Iflos! It! – La'chiy yerdan bir tosh oldi .

Ushbu kontekstda कमीने va कुत्ते so'zlari ni tahlil qilamiz. कमीने “iflos, pastkash, razil” degan ma'nolarni bildiradi. कुत्ते o'zbekchaga it deb tarjima qilinadi va hayvon nomi orqali haqoratlashni ifodalaydi.

4. Tahdid ma'nosini ifodalovchi vulgarizmlar: Tahdid ma'nosini ifodalovchi vulgarizmlar qattiq, tajovuzkor va kamsituvchi so'z-lar yoki iboralardan tarkib topgan bo'lib, ular odatda, boshqalarga zarar yet-ka-zish, salbiy ta'sir ko'rsatish yoki qo'rqitish maqsadida ishlatiladi. Bunday vul-ga-rizm-da ishlatiladigan ifodalar ko'pincha quyidagi ma'nolarni anglatadi: 1) zarar yet-ka-zish; 2) qo'rqitish; 3) shaxsiy xavfsizlikka tahdid.

Hindiydan o'zbek tiliga tarjima qilingan asarlarda o'z ichiga tahdidli va qattiq so'z-larni o'z ichiga olgan quyidagi vulgarizmlarni uchratish mumkin: तुम मर्द लोग डरते-काँपते ही रहोगे। अबकी बार अफसर से मिलने जाओ तो मुझे साथ ले चलना। अफसर को ऐसी फटकार सुनाऊँगी कि नानी याद करा दूँगी। [13, 10] – Erkak bo'lsalaring ham o'lguday quyonyuraksanlar. Endigi borganlaringda me-ni ham olib boringlar. Uni o'zim shunday boplayki, naq ona sutini og'ziga kel-ti-ra-man [11, 6].

Hindiy tilidagi नानी याद करा दूँगी iborasi “onasi uchun qiyinchiliklarni eslataman” tarzida kimgadir tahdid qilib, unga juda qattiq javob be-rish maqsadida ishlatiladi. Mazkur ibora o'zbek tiliga ona sutini og'ziga keltiraman deb tarjima qilingan.

अरे यह कौन औरत बेंचपर बैठी है? उठ वहाँ से। क्या सरकार ने तेरे ही लिए बेंच रख दी है? [9, 36] – Hoy, o'rindiqda o'tirgan xotin, kimsan? Qani, tuyog'ingni shiqillatib qol-chi! Hukumat seni o'tirsini deb bu o'rindiqni qurib qo'yibdimi? [8, 31].

5. Bevosita qarg'ishni aks ettiruvchi vulgarizmlar: Qarg'ishlar shaxs yoki uning hayotiga salbiy ta'sir qiladigan, unga yomonlik, baxt-sizlik yoki azob keltirishni tilaydigan iboralar yoki so'zlardan tarkib topadi. Qar-g'ishlar turli madaniyat va

an'analarda uzoq vaqt davomida mavjud bo'lib, av-lod-dan avlodga o'tib saqlanib boradi.

B.Sarimsoqov ham qarg'ish va olqishlar haqida quyidagi fikrlarni ilgari suradi: "so'z-ning sehr-jodu qudratidan qo'rqish, hamma vaqt so'zga ehtiyotkorlik bilan mu-no-sabatda bo'lish folklor janrlari sostavida bir-biriga mohiyatan tamomila qarama-qar-shi bo 'lgan janrlarning vujudga kelishiga sabab bo'lgan. Olqish va qarg'ishlar ana shunday bir-biriga zid janrlar sanaladi" [12, 64].

Qarg'ishlarni ziyon-zahmat yo'llash usullariga ko'ra quyidagi turlarga ajratish mum-kin: 1) O'lim tilash bilan bog'liq qarg'ishlar; 2) Yomonlik yoki azob tilash bi-lan bog'liq qarg'ishlar; 3) Baxtsizlik yoki muvaffaqiyatsizlik tilash bilan bog'liq qar-g'ishlar; 4) Jismoniy yoki ruhiy og'riqlar tilash bilan bog'liq qarg'ishlar va h.k.

F.Eshboyeva qarg'ishlarni qo'llanish turiga ko'ra 1) Bilvosita qarg'ishlar; 2) Be-vosita qarg'ishlarga tasniflaydi [12, 88].

Quyida hindiydan o'zbek tiliga tarjima qilingan asarlardagi personajlar nutqida uch-raydigan bevosita qarg'ishlarni ko'rib chiqamiz. जा मर, दाढ़ीजार! सरीर में कीड़ पड़ेगे, तिल-तिल कर मरेगा! [13, 24] Tarjimasi: Buzsang buzib o'l, juvonmarg bo'!! Xudoyo badaning irib, qurt-qu-mursqalarga yem bo'lsin! [11, 18].

Asar davomida xaloyiq ichidan bir necha ayol qo'lini paxsa qilib o'ynatgancha to'x-tovsiz qarg'ar va dam-badam uy buzayotgan odamga qarab tupurar edi. Yu-qo-ri-da keltirilgan jumlada जा मर, दाढ़ीजार, सरीर में कीड़ पड़ेगे kabi qo'pol haqorat so'zlari ishlatilgan. जा मर buyruq o-hangida kelgan bo'lsa ham mazmun jihatidan og'ir lanat hisoblanadi. Shaxsni shun-chaki koyish emas, balki unga zarar yetishini tilash maqsadida ishlatilgan. Bu i-bo-ra o'lim tilash bilan bog'liq qarg'ish guruhiga kiradi. दाढ़ीजार "ju-von-marg" ma'nosini anglatadi. Ayollar qattiq g'azablanganda erkaklarga nisbatan ish-la-tiladigan haqorat so'zi, ya'ni soqoli kuygan, yuzi kuygan yoki kuygan kishini ang-la-tadi. सरीर में कीड़ पड़ेगे - badaning chirib, qurt bosadi degan la'-nat shaklida kelgan.

औरत गिरती-पड़ती पीछे हट गयी, "दाढ़ीजार, तुझे मौत खाये! मैं तेरी माँ बराबर, मुझे धक्का दे रहा है...." [13, 24] – Hoy, oqpadar, - politsiyachiga qarab baqirdi ayol, - ajal olsin seni! Men o-nang

tengiman-a, nega meni itarasan? [11, 19].

Bu jumlada "दाढ़ीजार" so'zi haqorat sifatida ishlatilgan bo'lib, u biror ki-shining tashqi ko'rinishiga yoki soqoliga nisbatan qo'llanadi. O'zbekcha tar-ji-ma-da-gi oqpadar so'zi aynan shu ma'noni anglatadi. "मौत खाये!" esa ajal ol-sin seni deb tarjima qilingan, bu haqoratli va tahdid ohangida bo'lgan ifodadir.

Xulosa: qilib aytganda, turli madaniyatlarda qarg'ishlar muhim ahamiyatga ega bo'-lib, kishilarning qasddan yomonlik qilishiga qarshi bir vosita sifatida qaraladi. Qar-g'ishlarning qo'llanilishi ko'pincha haqorat yoki hujum sifatida qabul qilinadi. U-lar odamlarni salbiy his-tuyg'ularga solishi va ularni o'zini past his qilishiga olib ke-lishi mumkin. Bunday so'zlar odatda ziddiyatni kuchaytiradi va o'zgalar bilan sal-biy munosabatlar yaratadi.

Asarni boshqa tilga o'girayotgan tarjimon personaj portretini qayta yaratish ja-ra-yonida tarjima tilida mavjud turli leksik qatlamlar, serjilo tasvir vositalarini qo'l-lash bilan cheklanib qolmay, qahramonlarning voqelikka bo'lgan munosabatini il-g'ash, hissiy kechinmalarini idrok etish, orzu-intilishlarini anglay olish, maqsad va ni-yatlarini ko'ra bilishning ham uddasidan chiqmog'i lozim. Parazit so'zlar deb ata-luv-chi lug'aviy birliklar ham til madaniyati uchun yotdir. Ular, asosan, so'zlashuv nut-qida ko'p ishlatib, notiqning o'z nutqini kuzatib bormasligi, e'tiborsizligi na-ti-ja-si-da paydo bo'ladi va bora-bor odatga aylanib qoladi. Nutqda vulgar so'zlarni ish-la-tish nutq tuzuvchining tarbiyalanganlik darajasining tubanligini ko'rsatadi. Zotan, tar-biyalanganlikning mohiyati shaxsning jamiyatdagi mavjud ijtimoiy-iqtisodiy, ma-daniy-siyosiy va ma'naviy-axloqiy tartibotlarga so'zsiz va muntazam hurmat bi-lan qarashi va demakki, qat'iy amal qilishidan iboratdir.

REFERENCES

1. Аҳмедова А. Кеча ва кундуз романида қўлланган аналитик фольклоризмлар лингвопоэтикаси. Nutq madaniyati va o'zbek tilshunosligining dolzarb muammolari mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. 2020-yil, 4-may;
2. Арипов М. Турк тилидаги тилак, олқиш ва дуоларнинг лингвомаданий ва лингвопоэтик хусусиятлари: Филол. фан. б. фалс. д-ри (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2022.

3. Эшбоева Ф.Х. Ўзбек халқ қарғишларининг жанр хусусияти ва бадиияти: Филол. фан. номз....дисс. автореф. – Тошкент, 2008.
4. Крюкова И. Речевой акт проклятия и лексико-грамматические средства его осуществления: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ставрополь, 2011.
5. Мешкова О. Типы благопожеланий в традиционном русском родильно-крестильном обряде // Вестник Челябинского государственного университета. Филология. Искусствоведение. – Челябинск, 2010.
6. Муродов М. Қарғиш ва олқиш // Сарчашмадан томчилар. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1984.
7. Остин Л. Слово как действие. Перевод с англ. А.А. Медниковой // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. 17. Теория речевых актов // Отв. ред. Б.Ю. Городецкий. – М.: Прогресс, 1986.
8. Премчанд. Фидойи. (Ҳиндий тилидан Амир Файзулло таржимаси). – Тошкент: O'zbekiston, 2012.
9. प्रेमचन्द। सेवासदन। - इलाहाबाद: हंस प्रकाशन, 1919.
10. Қўчқоров Н. Ўзбек халқ олқишларининг жанр хусусияти ва бадиияти: Филол. фан. номз....дисс. автореф. – Тошкент, 1994.
11. Саҳний Б. Басантий. (Ҳиндий тилидан Амир Файзулло таржимаси). – Тошкент: Turon-iqbol, 2010.
12. Саримсоқов Б. Олқишлар ва қарғишлар // Ўзбек фольклори очерклари. 1-жилд. – Тошкент: Фан, 1988.
13. साहनी भ। बसन्ती। - नयी दिल्ली: राजकमल प्रकाशन, 1982.
14. Умарова М. XX аср ўзбек насри намуналарининг урду тилидаги таржималарида миллий колоритнинг ифодаланиши: Филол. фан. б. фалс. д-ри (PhD) ... дисс. автореф. – Тошкент, 2022.
15. Улициферов О.Г. Современный русско-хинди словарь. – М.: Медиа, 2004.
16. Вежбицкая А. Речевые акты. Перевод с англ. С.А.Крылова // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. Лингвистическая прагматика // Общ.ред. Н.Н.Попов. – М.: Прогресс, 1985.
17. Ўринбоев Б. Ҳозирги ўзбек тилида вокатив гап категорияси. – Тошкент, 1972.
18. Чандар К. Бир қизга минг ошиқ. (Ҳиндий тилидан Амир Файзулло таржимаси) // Жаҳон адабиёти. – Тошкент: Шарқ, 2011. – № 4.
19. चन्दर क। एक लड़की हज़ार दीवाने। - नई दिल्ली, 2013.